

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
4-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный
журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,

Axmedov Durbek Qudratillaevich, i.f.d., professor

Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,

Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,

Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,

Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,

Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,

Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor

Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.

Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor

Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor

Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)

Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor

Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)

Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD

Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent

Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD

Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD

Asqarova Muhabbat Ibraximovna

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Абдурахманов Каландар Ходжаевич

Модель компетенций и траектории повышения квалификации в профессиональном образовании в условиях внедрения искусственного интеллекта..... 5

Зокирова Нодира Каландаровна

Человеческий капитал и креативная экономика регионов Узбекистана оценка потенциала и точки роста..... 19

Усманов Анвар Саидмахмудович

Теоретический аспект устойчивого экономического роста..... 32

Мамадалиева Хафиза Холдаровна

Ўзбекистондаги демографик ўзгаришлар ва уларнинг иқтисодий ўсишга таъсири..... 43

Каримова Дилдора Мирсабитовна

Перспективы трансформации демографического потенциала узбекистана в демографический дивиденд..... 52

Саиджаббор Шоира Саидгаффор кизи

Экономическая самостоятельность женщин — историческая эволюция, изменение роли женщин на рынке труда и влияние социально-экономических факторов..... 60

Карабаева Гулнора Шарафитдиновна

Роль креативного сектора в обеспечении молодёжной занятости на рынке труда..... 69

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi, Muradova Alina Anvar qizi

Qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish istiqbollari..... 78

Кахрамонов Хуршидjon Шухрат угли

Современные подходы к обеспечению конкурентоспособности предприятий жилищно-коммунального хозяйства..... 85

Abdullayev Habibullo Asadulla o'g'li

Sun'iy intellektning mehnat bozoriga ta'siri: imkoniyatlar va xavf-hatarlar..... 90

Abdurahmonov Azizbek Akram o'g'li

Investitsion muhitni yaxshilash va xorijiy kapital uchun institutsional sharoitlarni takomillashtirish..... 96

Ilyasova Barno Axmadovna

qtisodiyot tarmoqlarini soliqlar orqali tartibga solish va rag'batlantirish samaradorligini oshirish xususida..... 102

Matkarimova Intizor Atabaevna <i>O'zbekiston hududida aholini ro'yxatga olish tadbiriga tayyorgarlik.....</i>	109
Khudoyberdiev Sardor Ismailovich <i>The impact of small entrepreneurship on the socio-economic development of regions in our country and its econometric analysis.....</i>	119
Mardiyev Bunyod Sirojiddin o'g'li <i>Innovatsion iqtisodiyot sharoitida tikuv-trikotaj korxonalarida mehnat bozorining transformatsiyasi va ishlab chiqarishni samarali tashkil etish mexanizmlari.....</i>	129
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li <i>Atrof-muhit o'zgarishlari sharoitida iqtisodiy xavfsizlikning strategik ustuvor yo'nalishlarini amalga oshirish istiqbollari.....</i>	134
Egamnazarov Khusniddin Fakhriddin ugli <i>Integrating international experience into sustainable tourism development: evidence from Uzbekistan.....</i>	141
Mirzaeva Matluba Gaybulla kizi <i>Digitalization of the banking sector in Uzbekistan: drivers and implications for financial stability.....</i>	152
Nasirova Nargiza Tursunpulatovna <i>Namangan viloyatini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari.....</i>	163
Shaxidova Dilafruz Muxtarovna <i>Kichik biznesni rivojlantirishda hududiy imkoniyatlardan foydalanish holati: uning muammolari va yechimlari.....</i>	172
Bobomuradova Sarvinoz Ziyadullayevna <i>The algorithm for forming transfer prices in trade enterprises and their role in segment reporting.....</i>	180
Batirov Farxad Bakitovich <i>Tadbirkorlik faoliyatini moliyalashtirish orqali zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	189
Abdullayeva Aziza Murot qizi <i>Ipoteka kreditlash bozorini rivojlantirish istiqbollari.....</i>	194
Alimov Fazliddin Xalimovich <i>Qashqadaryo viloyatining ijtimoiy-iqtisodiy tizimlar faoliyatini iqtisodiy- statistik tahlili.....</i>	201
Bahriddinova Muazzam Azam qizi <i>XItoy davlatida kambag'allikni qisqartirish siyosati.....</i>	209

QISHLOQ XO'JALIGI TARMOQLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDAN SAMARALI FOYDALANISH ISTIQBOLLARI

Eshqulova Xilola Shoyimqul qizi
GulDU dotsent v.b., i.f.f.d., PhD

Muradova Alina Anvar qizi
GulDU talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasining ahamiyati, uning ishlab chiqarish samaradorligini oshirishdagi o'rni hamda zamonaviy xizmat turlarini rivojlantirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Xizmat ko'rsatish infratuzilmasini takomillashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish, agroxizmat markazlari faoliyatini kengaytirish va fermer xo'jaliklari uchun qulay xizmat tizimini yaratish orqali qishloq xo'jaligi mahsuldorligini oshirish istiqbollari yoritilgan. Shuningdek, sohada mavjud muammolar va ularni hal etish bo'yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: qishloq xo'jaligi, xizmat ko'rsatish sohasi, samaradorlik, infratuzilma, raqamli texnologiyalar, agroxizmat, fermer xo'jaligi, innovatsion rivojlanish, iqtisodiy istiqbol.

ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОГО ИСПОЛЬЗОВАНИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В АПК

Эшкулова Хилола шойимкул кизи
ГулГУ, доцент, к.ф.-м.н., PhD

Муродова Алина Анвар кизи
студент ГулГУ.

Аннотация. В статье анализируется значение сферы услуг в аграрных отраслях, ее роль в повышении эффективности производства и направления развития современных услуг. Освещены перспективы повышения производительности сельского хозяйства за счет совершенствования сервисной инфраструктуры, внедрения цифровых технологий, расширения деятельности агросервисных центров и создания удобной системы обслуживания фермерских хозяйств. Также рассмотрены существующие проблемы в отрасли и разработаны предложения по их решению.

Ключевые слова: сельское хозяйство, сфера услуг, эффективность, инфраструктура, цифровые технологии, агросервисы, фермерское хозяйство, инновационное развитие, экономические перспективы.

PROSPECTS OF EFFECTIVE USE OF THE SERVICE SECTOR IN AGRICULTURAL SECTORS

Eshkulova Khilola Shoyimqul qizi
GulSU Associate Professor, Ph.D., PhD

Muradova Alina Anvar qizi
GulSU student

Annotation. This article analyzes the importance of the service sector in agricultural sectors, its role in increasing production efficiency, and directions for the development of modern services. The prospects for increasing agricultural productivity by improving service infrastructure, introducing digital technologies, expanding the activities of agroservice centers, and creating a convenient service system for farms are highlighted. Also, existing problems in the sector and proposals for their solution are developed.

Keywords: agriculture, service sector, efficiency, infrastructure, digital technologies, agri-services, farming, innovative development, economic prospects.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va istiqbollari tizimli tahlil qilindi. Ishda iqtisodiy tahlil, statistik ma'lumotlarni solishtirish, kuzatish va ekspert baholash usullaridan foydalanildi. Shuningdek, mahalliy va xorijiy tajribalar o'rganilib, ularning o'ziga xos jihatlari tahlil asosida umumlashtirildi. Tadqiqot natijalari qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish va samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Tadqiqotlar xorijiy tajriba asosida xizmat ko'rsatishning qishloq xo'jaligi sohasida muhim omil ekanligini ko'rsatmoqda. Masalan, tadqiqotchi olimlar Chen, H. va Zhao, X.lar A Literature Review on Socialized Agricultural Services Enabling High-Quality Rural Development nomli maqolasida ijtimoiylashtirilgan qishloq xo'jaligi xizmatlari (socialized agricultural services) orqali fermerlardan yanada samarali foydalanish, qishloq hududlarida yuqori sifatli rivojlanishni rag'batlantirish mumkinligi ta'kidlanadi [1]. Shuningdek, Somanje, A.N.ning Evaluating farmers' perception toward the effectiveness of

agricultural extension services in Ghana and Zambia maqolasi Gana va Zambiyada ekstensiv xizmatlarning fermerlar tomonidan qabul qilinishi va undan foydalanish darajasiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini aniqlagan — bu qishloq xo'jaligi xizmatlari sohasidagi xabar va maslahat xizmatlari muhimligini ko'rsatadi [2]. Shunday qilib, xalqaro adabiyotlar xizmat ko'rsatish sohasida — maslahat, texnik yordam, mexanizatsiya, ijtimoiylashgan xizmatlar orqali — fermerlar va agro-subyektlar samaradorligini oshirish mumkinligini tasdiqlaydi.

O'zbekistonda esa agrar xizmat ko'rsatish jarayonining tashkil etilishi va rivojlanish istiqbollari alohida ko'rib chiqilgan. Masalan, tadqiqotchilar Mullabayev, B. va Qazakov T.larning Management Systems of Agricultural Products in the Republic of Uzbekistan maqolasida agrar mahsulotlar boshqaruv tizimlari va agrar xizmatlar bilan bog'liq mexanizmlar tahlil qilingan [3]. Shuningdek, Innovative Activities of Agriculture in Uzbekistan nomli tadqiqotda O'zbekistonda xizmat ko'rsatish va innovatsion faoliyat orqali qishloq xo'jaligi tarmog'i samaradorligini oshirish imkoniyatlari ko'rib chiqilgan [4]. Bu holatlar mahalliy sharoitda xizmat ko'rsatish sohasining — texnik xizmat, maslahat, innovatsiyalar orqali — qishloq xo'jaligi tarmoqlarida yaxshiroq natija berishi mumkinligini ko'rsatadi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Tadqiqot davomida qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasining hozirgi holati tahlil qilindi. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish tizimi ishlab chiqarish samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biridir. Ayni paytda respublikaning ko'plab hududlarida texnik xizmatlar, agrotexnik maslahatlar, logistika va marketing xizmatlari yetarli darajada yo'lga qo'yilmagan. Bu esa fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish xarajatlarining ortishiga va raqobatbardoshlikning pasayishiga olib kelmoqda.

Tahlil natijalariga ko'ra, zamonaviy agroxiizmat markazlarini tashkil etish, raqamli platformalar orqali xizmatlarni avtomatlashtirish va qishloq xo'jaligida innovatsion texnologiyalarni joriy etish samaradorlikni sezilarli oshiradi. Shuningdek, xususiy sektorni jalb etish, kredit va investitsiya mexanizmlarini soddalashtirish xizmat ko'rsatish infratuzilmasining barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, xizmat ko'rsatish tizimini kompleks rivojlantirish orqali ishlab chiqarish hajmini 15–20 foizgacha oshirish, mehnat unumdorligini yaxshilash va qishloq aholisi bandligini ta'minlash imkoniyati mavjud. Shu asosda, sohada xizmat ko'rsatish turlarini diversifikatsiya qilish, kadrlar malakasini oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida xizmat infratuzilmasini kengaytirish istiqbollari ishlab chiqildi.

1-jadval

Qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish sohasining hozirgi holati va istiqbollari [5]

№	Xizmat ko'rsatish yo'nalishi	Hozirgi holat (muammolar)	Taklif etilayotgan yechimlar	Kutilayotgan natijalar
1	Texnik xizmat ko'rsatish (traktor, kombayn, irrigatsiya texnikasi)	Eskirgan texnikalar, ehtiyot qismlar tanqisligi, xizmat markazlari yetishmasligi	Hududlarda zamonaviy agrotexnika markazlarini tashkil etish	Ishlab chiqarish samaradorligi va hosildorlik oshadi
2	Agroxizmatlar (urug'chilik, o'g'itlash, himoya vositalari)	Resurslardan noto'g'ri foydalanish, xizmat sifati past	Raqamli nazorat tizimlarini joriy etish, malakali mutaxassislar tayyorlash	Resurslardan tejamkor foydalanish, sifatli mahsulot yetishtirish
3	Konsalting va axborot xizmatlari	Fermerlar uchun axborot oqimi yetarli emas	Qishloq joylarda axborot markazlari va mobil ilovalar yaratish	Fermerlar bilim va ko'nikmalarini oshirish
4	Logistika va transport xizmatlari	Mahsulotni bozorlarga yetkazishda qiyinchiliklar	Sovutkichli omborlar, transport tarmoqlarini kengaytirish	Mahsulot yo'qotishlari kamayadi, bozorlarga tez yetkaziladi
5	Moliyaviy xizmatlar (kredit, sug'urta, leasing)	Kredit olishdagi byurokratik to'siqlar, sug'urta tizimi sust	Soddalashtirilgan kredit tizimi, raqamli sug'urta platformalari	Fermerlar moliyaviy barqarorligini ta'minlash
6	Innovatsion xizmatlar (raqamli texnologiyalar, dronlar, IoT)	Texnologik savodxonlik past, uskunalar qimmat	Dastlabki subsidiya va o'quv dasturlari joriy etish	Innovatsion yondashuv kuchayadi, mehnat unumdorligi oshadi

Jadval ma'lumotlari tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasining har bir yo'nalishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim o'rin tutadi. Ammo sohada bir qator tizimli muammolar mavjud bo'lib, ular zamonaviy yondashuv va texnologiyalarni joriy etish orqali bosqichma-bosqich bartaraf etilishi mumkin.

Birinchidan, *texnik xizmat ko'rsatish tizimida* asbob-uskunalar va texnikalar eskirgan, ehtiyot qismlar tanqisligi sezilmoqda. Hududlarda zamonaviy agrotexnika markazlarini tashkil etish, texnikani lizing asosida

yetkazib berish va xizmat ko'rsatishni raqamlashtirish ishlab chiqarish samaradorligini sezilarli darajada oshiradi.

Ikkinchidan, *agroxizmatlar sohasida* urug', o'g'it va himoya vositalaridan noto'g'ri foydalanish natijasida hosildorlik pasaymoqda. Shu sababli, raqamli monitoring tizimlarini joriy etish va mutaxassislar malakasini oshirish orqali resurslardan tejamkor foydalanish va mahsulot sifatini yaxshilash mumkin.

Uchinchidan, *konsalting va axborot xizmatlari* yetarli darajada rivojlanmagan. Fermerlar uchun amaliy maslahatlar, bozor ma'lumotlari va ilg'or tajribalar taqdim etilmayapti. Qishloq joylarda axborot markazlari tashkil etish va mobil ilovalarni joriy etish fermerlarning bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularni bozor talablariga mos faoliyat yuritishga tayyorlash imkonini beradi.

To'rtinchidan, *logistika va transport xizmatlarida* muammolar mavjud. Ko'p hollarda mahsulotlar bozorga kech yetkaziladi yoki transport yetishmasligi tufayli yo'qotishlar kuzatiladi. Shu bois sovutkichli omborlar barpo etish, transport infratuzilmasini kengaytirish va logistika markazlarini tashkil etish mahsulotni tez va sifatli yetkazib berishga xizmat qiladi.

Beshinchidan, *moliyaviy xizmatlar tizimida* byurokratik to'siqlar, kredit olishdagi murakkab tartiblar fermerlarning moliyaviy barqarorligini cheklab qo'ymoqda. Soddalashtirilgan kredit tizimlari, onlayn sug'urta platformalari va davlat-xususiy sheriklik asosidagi investitsiya mexanizmlarini joriy etish ushbu muammolarni kamaytiradi.

Oltinchidan, *innovatsion xizmatlarning* sust rivojlanishi ham soha samaradorligiga ta'sir qilmoqda. Raqamli texnologiyalar, dronlar, IoT (narsalar interneti) tizimlarini joriy etish uchun dastlabki subsidiyalar va o'quv dasturlari tashkil etish zarur. Bu esa ishlab chiqarishda inson mehnatini yengillashtiradi, unumdorlikni oshiradi va ekologik xavfsizlikni ta'minlaydi.

Umuman olganda, jadval tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmat ko'rsatish sohasini kompleks rivojlantirish, texnik va moliyaviy infratuzilmani mustahkamlash, raqamli texnologiyalarni keng joriy etish qishloq xo'jaligining raqobatbardoshligini oshirish va barqaror rivojlanishiga asos bo'lib xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar.

Tadqiqot natijalari asosida qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish sohasini samarali rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ilgari suriladi:

1. *Xizmat infratuzilmasini modernizatsiya qilish.* Hududlarda zamonaviy agroxizmat markazlarini tashkil etish, mavjud texnik bazani yangilash va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini raqamlashtirish lozim. Bu ishlab chiqarish jarayonini optimallashtirib, texnik xizmatlar sifatini oshiradi.

2. *Raqamli texnologiyalarni keng joriy etish.* Fermer xo'jaliklari faoliyatida onlayn monitoring, masofaviy maslahat, agrotexnik xizmatlarni avtomatlashtirish tizimlarini tatbiq etish zarur. Bu resurslardan tejamkor foydalanish va mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qiladi.

3. *Kadrlar malakasini oshirish va axborot xizmatlarini rivojlantirish.* Fermerlar va mutaxassislar uchun o'quv kurslari, seminarlar va masofaviy ta'lim platformalarini yo'lga qo'yish, ularni innovatsion texnologiyalar bilan ishlashga tayyorlash zarur.

4. *Moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini soddalashtirish.* Fermer xo'jaliklari va xizmat ko'rsatish subyektlariga qulay kredit, lizing va sug'urta tizimlarini yaratish, davlat-xususiy sheriklik asosida investitsiyalarni jalb etish lozim.

5. *Logistika va saqlash tizimini takomillashtirish.* Qishloq hududlarida sovutkichli omborlar, logistika markazlari va transport infratuzilmasini rivojlantirish orqali mahsulotni tez va sifatli yetkazib berish imkonini yaratish zarur.

6. *Innovatsion xizmat turlarini rivojlantirish.* Dronlar, sensor tizimlar va "aqli" sug'orish texnologiyalarini joriy etish orqali mehnat unumdorligini oshirish va ekologik xavfsizlikni ta'minlash maqsadga muvofiqdir.

7. *Mahalliy va xorijiy tajribalarni integratsiya qilish.* Xorijda muvaffaqiyatli ishlayotgan xizmat tizimlarini o'rganish va ularning mos modellari asosida milliy xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish tavsiya etiladi. Bu takliflar qishloq xo'jaligida xizmat ko'rsatish tizimini samarali boshqarish, ishlab chiqarish barqarorligini ta'minlash va sohaning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

Yurtimizda qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishda xizmat ko'rsatish sohasining o'рни beqiyosdir. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, xizmat infratuzilmasining yetarlicha rivojlanmagani, texnik ta'minotning eskirganligi va moliyaviy mexanizmlarning murakkabligi soha samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois xizmat ko'rsatish tizimini zamonaviy texnologiyalar asosida takomillashtirish, raqamli yechimlarni keng joriy etish hamda innovatsion xizmat turlarini rivojlantirish zarur.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, agroxizmat markazlarini tashkil etish, logistika va axborot xizmatlarini rivojlantirish, kadrlar malakasini oshirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida moliyaviy qo'llab-quvvatlash tizimini soddalashtirish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining barqaror o'sishini ta'minlaydi. Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi tarmoqlarida xizmat ko'rsatish sohasidan samarali foydalanish – bu nafaqat ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, balki qishloq aholisi bandligini ta'minlash, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash va mamlakat iqtisodiy taraqqiyotiga hissa qo'shishning eng muhim omillaridan biridir. Shu yo'nalishda tizimli islohotlarni

izchil davom ettirish va ilg'or tajribalarni amaliyotga tatbiq etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar:

1. Chen, H., & Zhao, X. (2024). *A Literature Review on Socialized Agricultural Services Enabling High-Quality Rural Development*. Rajapark International Journal, 1(3), 48–59.
2. Somanje, A.N. et al. (2021). *Evaluating farmers' perception toward the effectiveness of agricultural extension services in Ghana and Zambia*. Agriculture & Food Security, 10, 53.
3. Mullabayev, B., & Qazakov, T. (2024). *Management Systems of Agricultural Products in the Republic of Uzbekistan*. International Journal of Research in Commerce, IT, Engineering and Social Sciences.
4. Rustamova, D., Makhmudov, O., & Yuldashev, A. (2019). *Innovative Activities of Agriculture in Uzbekistan*. World Science.
5. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi. 2024-yil hisobot ma'lumotlari. – Toshkent: Qishloq xo'jaligi vazirligi nashriyoti, 2025.
6. Qosimov, B. va boshq. *Agrosanoat majmuasida xizmat ko'rsatish tizimini takomillashtirish yo'nalishlari*. – Toshkent: TDIU nashriyoti, 2020. – 212 b.
7. Rasulov, A. T. *Qishloq xo'jaligida innovatsion xizmatlar tizimini rivojlantirish*. // Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar jurnali. – 2022. – №3. – B. 45–52.
8. Abduqodirov, S. *Fermer xo'jaliklari faoliyatida xizmat ko'rsatishning iqtisodiy asoslari*. – Toshkent: "Fan va texnologiya", 2019. – 198 b.
9. FAO (Food and Agriculture Organization). *Digital Agriculture Transformation in Central Asia*. – Rome: FAO Publishing, 2023. – 78 p.
10. OECD. *Innovation, Agricultural Productivity and Sustainability in Uzbekistan*. – Paris: OECD Publishing, 2021. – 112 p.
11. Hasanov, U. *Agroxizmatlar tizimini rivojlantirishning iqtisodiy mexanizmlari*. – Toshkent: TMI nashriyoti, 2020. – 164 b.

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

